

TAQINCHOQLAR VA ULARNING AHOLI ETNIK HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15043418>

Taqinchoqlar ham xuddi kiyimlar singari uzoq asrlar davomida shakllangan bo'lib, ularning o'ziga xosligi milliy xususiyatlar, bir xalqning boshqa etnos yoki etnik guruxlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalari, siyosiy tuzumning milliy madaniyatga ta'siri va boshqalarda namoyon bo'ladi. Xar bir xalqning etnik tarixidagi milliy an'analar, ijtimoiy munosabat va mafkuraning ayrim xususiyatlari taqinchoqlarning nafisligida ham o'z aksini topadi¹.

Taqinchoqlarning naqsh va bezagida u yoki bu etnosning asrlar davomida ardoqlanib kelingan milliy an'analar, ijodiy mahoragi va badiiy didi ham yorqin namoyon bo'ladi.

A'naviy taqinchoqlar majmui ham xuddi kiyimlar singari ma'lum bir etnos hamda etnografik va mahalliy guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. SHuning uchun ham taqinchoqlarni tadqiq qilish nafaqat xalq kiyimlari evolyusiyasini yoritishda, balki xalqning tarixi, etnogenezi, ya'ni shakllanish tarixini o'rganish va tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri xulosa chiqarishda muhim va bebaho manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi, qolaversa, taqinchoqlarga bag'ishlangan tadqiqotlar etnik va madaniy aloqalarni taxlil etishda ham ko'mak beradi².

Arxeolog olimlarning ta'kidlashlaricha, hunarmandchilik tarixida dastavval ayollar taqinchoqlari paydo bulgan esa-da, keyinchalik bu bezaklarni erkaklar ham taqishi urf bulgan³.

Asta-sekin hayvonlarga, uylarga yoki biror buyumga ham taqinchoq taqish odatga aylangan. Bezaklardan foydalanishga talab kuchaya boshlagach, ularning turlari alohida mazmun-mohiyat kasb etgan. YA'ni taqinchoqlar har hil turlarga bo'linib, insu jinslardan asrovchi, kasalliklardan halos etuvchi, turli tashqi ta'sirlardan muhofaza qiluvchi, jamiyatda kishining kimligini, uning mavqeini belgilovchi vosita vazifasini bajara boshlagan. Bunday taqinchoklar peshona, bo'yin, quloq, burun, qo'l va oq panjalariga taqilib, ular ko'zli yo ko'zsiz bo'lgan hamda xat va naqshlar bilan bezatilgan.

XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida voha ayollarining an'anaviy turmush tarzida taqinchoqlar o'ziga betakror bezak beruvchi (estetik) vosita vazifasini bajarishdan tashqari diniy-afsungarlik funksiyasini, ijtimoiy farqlarni va mintaq axolisining lokal-hududiy xususiyatlarini

¹ Сухарева О.А. Вопросы изучения костюма Средней Азии // Костюм народов Средней Азии. - С. 5-13.

² Борозна Н.Г. Особенности комплексов ювелирных украшений населения некоторых районов Узбекистана / Итоги полевых работ Института этнографии 1971 года. - М., 1972. - С. 74; Уша муаллиф. Виды женских ювелирных украшений у народов Средней Азии и Казахстана // СЭ. - 1974. - № 1.

³ Широнини Е.С. Ювелирные украшения Узбекистана и Таджикистана конца XIX - начала XX вв. - М., 1992; Йулдошева Г. Нурота аёлларининг анъанавий тақинчоқлари (XIX асрнинг охири - XX асрнинг бош-лари) // Узбекистонда ижтимоий фанлар. - 1995. - № 3. - Б. 82

ham anglatgan. SHuningdek, taqinchoqlar turli yosh doirasidagi farqni, ya'ni, bolalik, qizlik, kelinlik va undan keyingi davr bilan bogliq farqni ham anglatgan. Onalar va kekxa momolar taqinchoqlari ham o'zaro farqlangan, qolaversa, taqinchoqlar mulkdor tabaka vakillari hamda shahar va qishloqning oddiy fuqarolariga tegishli taqinchoqlarga ham bo'lingan.⁴ Umuman olganda, taqinchoqlarda xalqimizning ming yillar mobaynida to'plagan boy ijodiy an'analari, ma'naviy merosi hamda badiiy-estetik tafakkuri o'z ifodasini topgan.

Taqinchoqlarning yuqorida sanab o'tilgan belgilari va o'zaro farqli jixatlari ichida turli tarixiy-etnografik mintaqalarga xos lokal-xududiy xususiyatlari va ramziy funksiyalarining ajralib turishi muxim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bir tarixiy-etnografik mintaqalar taqinchoqlarining ikkita tarixiy-madaniy tipga bo'linishini ko'rish mumkin. Ayollarning an'anaviy taqinchoqlari xilma-xil bo'lib, ular etnik va lokal jixatdan shakli, ko'rinishi va qaysi ma'dandan tayyorlanganligi bilan ham farqlanib turadi. Lekin shu o'rinda aytib o'tish zarurki, ayollar taqinchoqlari ham turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-siyosiy muxit, tabiiy sharoitlar ta'sirida o'zgarib, yangi bo'laklar va shakllar bilan boyib borgan. Biroq, shuni ham unutmaslik lozimki, ko'p xollarda taqinchoqlar avloddan-avlodga meros tariqasida o'tib kelishi natijasida o'zining eng qadimiy, an'anaviy shaklini saqlab qolgan.

Milliy taqinchoqlar va zargarlik bezaklari kiyim-kechak, ayniqsa, ayollar kiyimining eng muhim badiiy zeb-ziynatlaridan biri bo'lib, bu kiyimlarning bichimi va shakli bilan uzviy boglangan, ranga, ko'rinishi va vazifasi bilan hamohang bo'lgan.⁵ Voha ayollarining an'anaviy taqinchoqlari ham umumo'zbek taqinchoqlari singari ko'pincha kumushdan, oltindan, jezdan, misdan, bronzadan tayyorlangan hamda turfa xil uslubdagi naqsh va bezaklar asosida zeb berib yasalgan. Usta zargarlar uzuk, zirak, bilakuzuk, marjonga o'xshagan va axolining kundalik turmush tarzida taqishga mo'ljallangan sodda zeb-ziynatlarni yasash bilan birga yuksak mahorat talab qiladigan o'ta murakkab nakshli zargarlik buyumlarini ham tayyorlaganlar.

Vohaning an'anaviy taqinchoqlari taqilishiga qarab 4 ta asosiy guruxga bo'linadi:

Boshga va burunga taqiladigan taqinchoqlar;

Ko'krak, bo'yin, kiftga taqiladigan bezak buyumlari va taqinchoqlar;

Tananing bel qismiga o'raladigan va taqiladigan taqinchoqlar;

Ko'l taqinchoqlari⁶.

⁴ Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари:анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.:''Янги аср авлоди'',2006,- Б.92.

⁵ Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари:анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.:''Янги аср авлоди'',2006,- Б.93.

⁶ Борозна Н.Г. Виды женских ювелирных украшений у народов Средней Азии и Казахстана // СЭ. - 1974. - № 1. - С. 33; Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. - Т.: Изд. литературы и искусства, 1988. - С. 79.

Ushbu taqinchoqlar va bezak buyumlari ayollarning yoshi, kiyimining rangi, mato turi va tikilish usuliga qarab taqilgan. Ularning ko'plari hozirda ham taqilsa, ayrimlari yangi turdagi taqinchoqlarning kirib kelishi natijasida iste'moldan chiqib ketgan. Xar bir ayol o'z didiga mos taqinchoqlar kompleksiga ega bo'lgan va o'z o'rnida taqib, doimiy caqlab yurgan. Xatto, taqinchoqlap ayollarning merosiy mulki ham hisoblangan. Vohada qizlar turmushga chiqib, kelin bo'lganlaridan keyin dastlab bayramlarda, mexmon kelganda yoki mexmondorchilikka borganida barcha taqinchoqlarini taqishgan. Boshqa paytlarda ayollar zirak, uzuk va bilakuzuk kabi sodda zeb-ziynatlarni taqib yurishgan.

Boshga taqiladigan taqinchoqlar ichida kallaning peshona qismiga taqiladigan taqinchoqlar o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turgan va ular ham o'z navbatida peshonaga, sochgga, quloqqa va burunga taqiladigan taqinchoqlar singarilarga bo'lingan.

Peshona taqinchoqlari ham o'z navbatida uchga bo'lingan va birinchi guruhga «tillaqosh», ikkinchisiga «bargak» va «silasila», uchinchisiga «mohitilla», «zulfitilla» va «xatabak» kirgan.

Peshonaga taqiladigan taqinchoqlar. XX asrning birinchi yarmida an'anaviy peshona taqinchoqlari ichida «tillaqosh» o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. YArim doirani eslatadigan bu taqinchoqning asosi kumush parchasidan kesib olingan va o'sgan qosh shaklida yoki qanotini yoygan qushga o'xshatib yasalgan. YUqori qismi esa murakkab panjarali shakl bilan tugaydi.

Uzbekiston hududida tillaqoshning uch xil - buxorocho, xivacha va toshkentcha turlari ma'lum. Samarqandcha tillaqosh «qoshitillo», «tillaqosh», Buxoroda «boloabru» (tojikcha «qosh ustida» demakdir) ⁷, Fargona vodiysida «tillaqosh» ⁸, Nurotada «tillabargak» yoki «taxtachabargak» ⁹ nomlari bilan atalgan. Kashqadaryo vohasida ham mazkur taqinchoq «tillaqosh» deb yuritilgan. Bu davrda Respublikamizning boshka mintaqalarida bo'lgani singari, vohada ham mazkur taqinchoqni asosan turmushga chiqqan kelinlar taqishgan. SHahrisabz, qarshi shaxarlaridagi o'ziga to'q oilalar o'z qizlarining seplari uchun savdogarlardan tillaqosh sotib olishgan va to'y kuni yoki to'ydan so'ng o'tkaziladigan «kelin salom», «yuz ochar» marosimlarida kelinlikning o'ziga xos ko'rki sifatida uni covg'a qilishgan. Samarqand va Buxoroda ham tillaqosh asosan kelinlarning to'y tantanalarvda taqadigan peshona taqinchoqi hisoblangan¹⁰.

Endi esa bevosita ushbu taqinchoqning «tillaqosh» deb nomlanishi masalasiga to'xtalib o'tsak. xaligacha mazkur taqinchoq nomini bildiruvchi so'zning etimologiyasi borasida yakdil qarash mavjud emas. Ayrim mualliflarning yozishicha, ushbu taqinchoqning «tillaqosh» deb

⁷ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма... - С. 98; Алмеева Д.Е. Бухоро заргарлик санъати // Бухоро маданий мероси таърихилан. - Бухоро. 1995. - Б. 75-76.

⁸ Абдуллаев Т.А., Хасанова С.А. Одежда узбеков (XIX - начало XX вв.). Т.: Фан, 1978. - С. 11.

⁹ Йулдошева Г. Нурота аёлларининг анъанавий тақинчоқлари... - Б. 82.

¹⁰ Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма... - С. 100.

atalishiga sabab, mazkur taqinchoqning pastki qismi qosh shaklidagi tilladan yasalgan bo'lib, ustki qismiga uchburchak shakldagi turli xil toshlar o'rnatilganligidadir. Boshqa tadqiqotchilar, jumladan, san'atshunos olim D. A. Faxretdinovning fikricha, tillaqoshning bunday shaklda yasalishiga inson qoshi emas, balki qushning yoyilgan qanoti asos bulgan. Chunki qosh bunday burilish shakliga ega emas ekan. Bundan tashqari, «qosh» so'zi talaffuziga ko'ra «qush» so'zi bilan o'zaro uyqash xam xisoblanadi, qolaversa, an'anaviy kashtalardagi tillaqoshga o'xshash shakl xam «qush qanoti» deyiladi. Biz bu borada ikkinchi muallifning fikrlarini ma'qullagan xolda shuni ta'kidlaymizki, eng qadimgi davrlarda Markaziy Osiyoning azaliy axolisi orasida tovuq, tustovuq va xo'roz kabi parrandalar muqaddas qushlar sifatida e'zozlangan. Ular serpushtlik goyasi bilan aloqador bo'lib, quyosh turkumiga xos parrandalar xisoblangan. SHu bois, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlarda ushbu qushlar tasviri yoki pati qo'llanilgan.¹¹

Markaziy Osiyoda yashagan o'troq axolining qadimiy peshona taqinchoqlaridan biri sifatida XX asrning boshlariga qadar keng ommalashib kelgan «moxitillo» yoki Buxoro amirligi xududida keng tarqalgan «bibishik» va «sarguzon» kabi peshona taqinchoqlariga xam qush boshi shaklida bezak berilgan. Bundan tashqari, Buxoroda «qush duo», «qush kokili», Xorazmda «butun tirnoq», «yarim tirnoq» va «xo'kiz shoxi» nomlari bilan ataluvchi taqinchoqlar xam bulgan. Aynan qush shaklidagi taqinchoqlarni tayyorlashga qo'qon zargarlari juda moxir bo'lishgan¹².

G. Grigorevning fikricha, chakkaga taqiladigan gajakning yasalishiga xam qush tasviri asos bulgan¹³. Umuman olganda, qush tasviri va ularning ramzlari aks etgan taqinchoqlar ko'pincha o'troq dexqonchilik bilan shugullangan axoli orasida kelinlarning peshona va chakkaga taqiladigan taqinchoqlariga xos an'anaviy bezak vazifasini bajargan. Demak, tillaqosh juda qadimiy maxalliy taqinchoqlardan biri bo'lib, qadimgi odamlarning atrofdagi olamdan ilxomlanishi natijasida yaratilgan. Uning ilk shakliga qushning yoyilgan qanoti asos bo'lgan va mazkur taqinchoqning evolyusiyasi jarayonida uning kelib chiqishi bilan bogliq dastlabki tasavvurlar unutilib, tillaqoshni inson qoshni bilan qiyoslash asnosida yuzaga kelgan qarashlarga xalq orasida saqlanib qolgan.

Tillaqoshga nazar tashlar ekanmiz, uning eng pastki qismi shildiroq bilan bezatilganini ko'rishimiz mumkin. Etnograf olim O.A. Suxarevaning yozishicha, dastlabki paytlarda tillaqoshda shildiroq mavjud bo'lmagan va u qoshning ustiga taqilgan. Keyinchalik esa uning tarkibiga turli xil toshlarning ulanishi natijasida u peshonaga taqiladigan taqinchoqqa

¹¹ Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: анъанавийлик ва замонавийлик.-Т.: "Янги аср авлоди", 2006,- Б.95.

¹² Борозна Н.Г. Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения... - С. 283.

¹³ Григорьев Г. Туе тупи... - С. 21-24.

aylangan¹⁴Ta'kidlash joizki, o'zbeklarda azaldan zargarlik buyumlarini yasashda qimmatbaxo va yarim qimmatbaxo toshlardan samarali foydalanilgan.¹⁵ SHuningdek, bunday toshlar tabobatda xam qo'llanilgan bo'lib, xalqimizda toshlarning shifobaxshlik xususiyatiga egaligi to'grisida o'ziga xos e'tiqodiy ishonchlar mavjud bulgan . Umuman olganda, bunday e'tiqodiy qarash nafaqat Markaziy Osiyo xalqarida, balki, qadimgi SHarq mamlakatlarida xam keng tarqalgan bulib, bu kupincha qimmatbaxo toshlarning magik kuch-qudratiga ishonch darajasigacha ko'tarilgan.

Tillaqosh XX asrning birinchi choragigacha ayollar taqinchoqlari majmuida muxim o'rinni egallagan bo'lsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yangi turdagi taqinchoqlarning kirib kelishi va turli-tuman o'zgarishlar natijasida kundalik xayotdan chiqib ketgan va uning o'rnini o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy talablariga mos keluvchi yangi taqinchoqlar egallagan. Tillaqosh va uning rivojlanish bosqichlari to'grisidagi fikrlarimizni yakunlash asnosida shuni xam ta'kidlab o'tish joizki, ba'zi mualliflar mavjud faktlarni to'g'ri talqin etmasliklari natijasida ushbu taqinchoq tarixini birmuncha keyingi davr bilan boglab taxlil etadilar. Jumladan, etnograf olimi N.G. Boroznaning «tillaqosh XIX asr oxiri - XX asr boshlarida turmush tarziga kirib kelgan»¹⁶ , degan fikri, bizningcha, xaqiqatdan yiroqdir.

Chunki, tillaqoshning uzoq evolyusion yulni bosib utganligini va qadimiy tarixga ega ekanligini yuqoridagi fikrlar xam tasdiqlaydi. SHu o'rinda, qadimgi rus madaniyati tarixi buyicha mutaxassis B.A. Rybakovning «toj va marjonlardagi tasvirlarni oddiy estetik bezak sifatida emas, balki qadimgi tasavvurlar bilan boglanadigan yashirin yozuv deb baxolash kerak»,¹⁷ - degan fikrini keltirib o'tish joizdir.

Zeb-ziynatlar ayollar kiyim-kechagining tarkibiy qismi sanaladi. Ular orasida sochga taqiladigan shokilali marjonmunchoqlar, popuklar, tangalar, qadama bezaklar, gajimlar, zalvorli kumush ziynatlar, ikki chekkaga va quloqqa taqiladigan peshonaband, tillaqosh, zulf, shokilador ziraklar, isirg'a va buloqilarni sanab ko'rsatish mumkin. SHu bilan birga bo'yin va ko'krakka taqiladigan marvaridlar, zebigardon, tumor va boshqalar, qo'lga va barmoqlarga taqiladigan bilaguzuk, uzuklar, kiyim ustiga taqiladigan xilma-xil tugma, marjon, tumorlar kabilar keng tarqalgan. Ayollar taqinchoqlarini yasashda tilla, kumush, marjon, feruza, sadaf singari noyob va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan.

¹⁴ Сухарева О.А. Вопросы изучения костюма Средней Азии... - С. 100;

Йулдошева Г. Нурота аёлларининг аънавий тақинчоқлари... - Б. 82.

¹⁵ Азизова Н.К. Ювелирные изделия Узбекистана. - Т., 1968. - С. 7-8.

¹⁶ Борозна Н.Г. Некоторые материалы об амулетах-украшениях населения... - С. 283.

¹⁷ Давлатова С. Қашқадарё миллий кийимлари: аънавийлик ва замонавийлик.-Т.: "Янги аср авлоди", 2006,- Б.96.

Taqinchoqlar ishlab chiqarish xom ashyo sifatida qimmatbaho va rangli metallar (qalay, oltin, kumush va b) qotishmalari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar (feruza, olmos, aqiq, yoqut vab) plastmassa, tabiiy toshlar, suyak, emal, shisha va boshqalar ishlatiladi.¹⁸

Tilla-bargak, tillaqosh, gajak, tavq, marjon, zebigardon, nazigardon, sirg'a, bilakuzuk kabi barcha turdagi taqinchoqlarni kelinlar bezak sifatida ishlatishgan. SHu bilan birgalikda, bu taqinchoqlar ayollarni balo-qazolardan, yomon ko'zlardan asrovchi vazifasini ham bajargan.

Shunday taqinchoqlardan biri, kelinlar peshonasiga taqadigan tillaqosh bo'lib, u ma'danga xuddi qoshga o'xshatib shakl berish orqali yasalgan. Uning pastki qismi xuddi yaproq ko'rinishidagi shokildalardan iborat bo'lib, yuqori qismi nafis bezatilgan vatoshlar qadab chiqilgan. Tillaqoshning yuqori qismi naqshinkor bo'lmagan ko'rinishi bolo-abru deb atalgan.

Yana bir taqinchoq turi tilla bargak bo'lib, u ham peshonaga taqilgan. Tilla bargak bir-biriga ulangan kvadrat tangalardan iborat bo'lib, yuqori qismida marjon feruza toshlar bilan bezatilgan gulsimon tangachalar qatori joylashgan. Pastki qismini esa barg ko'rinishidagi mayda shokilalar to'ldirgan. Buxoro tillabarglari tuzilish jihatidan Xorazm ayollarining manglay tuzi taqinchoq'iga juda o'xshashdir.

Ko'pgina taqinchoqlar bejizga barg ko'rinishli bezaklar bilan bezatilmagan. Qadim zamonlarda odamlar bargni hayot va tabiatning uyg'onish ramzi deb bilishgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro an'anaviy liboslarining shakllanish jarayoni bevosita hududdagi etnografik holat, aholining etnik tuzilishi, ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o'zgarib borishi, tashqi aloqalar, mustamlaka tuzumi bilan bog'liq ravishda kechdi. Buxoro vohasi milliy liboslari qay davrda bo'lishdan qat'i nazar o'z jozibasi va ko'rkini yo'qotmay saqlab kelmoqda. Voha hududidagi matolar, ularga ishlov berish qadim davrlardan tortib hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda.

Hozirgi zamon rivojlangan usullar bevosita o'tmish an'alarini o'zida mujassamlashtirgan holda rivojlanmoqda. Ulardagi har bir naqsh, bezaklar, ranglar o'z ma'no-mazmuniga ega bo'lgan. An'anaviy liboslarning voha aholisining o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlari, bezaklari, ma'no-mazmunining boyligi hozirgi davrga qadar o'z ko'rinishi yo'qotmay saqlanib qolishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Milliy liboslarda har bir detal o'z o'rni va ma'nosiga ega edi. Bunda davr va har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari va an'analari bilan birga tashqi ta'sirlarning ham o'rni beqiyos bo'ldi. Buxoro vohasi liboslari o'zining serhashamliligi bilan ayniqsa ajralib turardi. Milliy liboslarning ahamiyat darajasining ortganini hozirgi kunda bevosita yaqqol ko'rishimiz mumkin.

¹⁸ Дониёров А.Х, Бўриев О, Аширов А.А.Марказий Осиё халклари этнографияси, этногенези ва этник тарихи.-Т.: янги нашр, 2011, Б-99.

Liboslar bilan bir qatorda milliy taqinchoqlar ham bevosita nafaqat tariximizni o'rganish borasida ashyoviy manba sifatida foydalanilishi mumkin, shuningdek bundan buyumlarning barida milliy o'zligimiz saqlanib qolgan hisoblanadi. Ularni asrash, kerakli o'rinlarda ishlatish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Ярашова, М. (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
2. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
3. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
4. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
5. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
6. Yarashova, M., Sa'dullayev, U., & Yo'ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO'PPI VA RO'MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
7. Yarashova M. & Sultonova, M. (2025). BUXORO VOHASI DAFN MAROSIMI KIYIMLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ IRIM-SIRIMLAR. *Modern Science and Research*, 4(1), 352–358. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63674>
8. Yarashova, M. (2025). EDVARD TAYLOR –ETNOLOGIYADA EVOLYUTSIONISTIK MAKTAB ASOSCHISI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1005–1012. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/68483>

9. Yarashova, M., Yuldosheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLISH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73–80. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70712>
10. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81–91. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70714>
11. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
12. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
13. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
14. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
15. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
16. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
17. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
18. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
19. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
20. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.

21. Sadullayev, U. (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(4), 376-385.
22. Sadullayev, U. (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(4), 376-385.
23. Sadullaev U. (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. *Medicine, Pedagogyand Technology: TheoryandPractice*, 2(5), 344–352.
24. Sadullayev, U., Gadayeva, M., &Toshpo‘latova, S. (2024). MAHALLA–QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
25. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., &Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
26. Sadullayev, U. (2024). MIRZA SIROJ HAKIM AND HIS LEGACY. *Modern Science and Research*, 3(2), 902-910.
27. Toshpo‘latova, S., Gadayeva, M., &Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
28. Shokir o‘g‘li, S. U. (2023). The History of the Creation and Formation of the Neighborhood. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 480-485.
29. Sadullayev, U. (2024). THE NEIGHBORHOOD IS THE CRADLE OF VALUES. *Modern Science and Research*, 3(1), 607–613.
30. Shokir O‘g‘li, S. U. (2023). The importance of the mahalla system’s reforms in new Uzbekistan. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
31. Yuldosheva, F. . (2024). MIRZO ULUG‘BEK KUTUBXONASI VA BUGUNGI TAQDIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 741–749. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/-research/article/view/58564>
32. Yuldosheva , F. . (2024). BOLA TUG‘ILISHI BILAN BOG‘LIQ MAROSIMLAR O‘ZBEK XALQI HAYOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 3(11), 788–791. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48058>
33. Yuldosheva , F. Y. qizi. (2023). LEV NIKOLAYEVICH GUMILYOVNING “QADIMGI TURKLAR” ASARIDA KO‘KTURKLAR YODGORLIKLARI XUSUSIDA. *GOLDEN BRAIN*, 1(16), 338–342. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php//article/view/3908>
34. Yuldosheva , F. . (2025). MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – MILLATNING O‘Z TAQDIRINI ANGLASHIDA YORQIN YULDUZ VA MILLIY UYG‘ONISH

- DAVRINING RAMZI. *Modern Science and Research*, 4(1), 420–427. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/60832>
35. Yuldosheva, F. ., &Abdihamidova , F. . (2025). BEHBUDIYNI KIM O'LDIRGAN?. *Modern Science and Research*, 4(1), 359–366. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63681>
36. Yuldosheva, F. . (2025). IBN BATTUTANING “SAYOHATNOMA” ASARI MUHIM MANBA SIFATIDA. *Modern Science and Research*, 4(2), 573–580. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/scienceresearch/article/view/66954>
37. Yarashova, M., Yuldosheva, F., &Haqqulov, M. (2025). TA'LIM OLISH TARTIBI: YANGILANISH VA O'ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA'LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73–80. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70712>
38. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81–91. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/70714>
39. Gadayeva, M. (2025). ABDULHAMID CHOLPONNING JADIDCHILIK HARAKATIDAGI ORNI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1013-1019.
40. Gadayeva, M. (2025). TURKISTONLIK GENERAL AYOL, MILLAT ONASI-QURBONJON DODXOHNING MARD, JASUR VA VATANPARVARLIGI HAQIDA. *Modern Science and Research*, 4(1), 344-352.
41. Muxamedovna, G. M. (2024). PARANJI TARIXI, YOXUD O'RTA ASR AYOLLARINING KIYIMI HAQIDA.
42. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
43. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEKANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
44. Muxamedovna, G. M. (2023). Uchinchi renesans davrida ajdodlarimiz merosini organish orqali integratsion ta'limni yanada takomillashtirish tamoyillari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 22(1), 35-38.
45. Muxamedovna, G. M. (2023). History Of Patriotic Women. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 69-75.
46. Muxamedovna, G. M. (2023). Innovatsion TaLim-Buyuk Kelajak Poydevori. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.

47. Gadayeva, M. (2024). Effective Ways To Use The" Thoughtstorm" Method On The Theme Of The" Eastern Renaissance" Era. *Modern Science and Research*, 3(1), 1024-1027.
48. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 87-96.
49. Toshpo'latova, S. (2025). FOROBIYNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. *Modern Science and Research*, 4(1), 177-186.
50. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Sadullayev, U. (2024). SHARQ ALLOMALARINING DIDAKTIK QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 3(12), 985-993.
51. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Sadullayev, U. (2024). TARIX FANLARINI OQITISHDA MUZEYLARNING ORNI. *Modern Science and Research*, 3(12), 994-1003.
52. Sadullayev, U., Gadayeva, M., & Toshpo'latova, S. (2024). MAHALLA-QADRIYATLAR BESHIGI. *Modern Science and Research*, 3(12), 1228-1238.
53. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRIS METODIKASI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14520996>
54. Toshpo'latova, S. (2024). TARIX FANINI O'QITISHDA SAMARALI METODLAR. *Modern Science and Research*, 3(11), 774-782.
55. Тошполатова, Ш. (2024). THE PRESENT IRANIANS. *Журнал универсальных научных исследований*, 2(5), 453-462.
56. Toshpo'latova, S. (2024). BUXORODAGI SAROYLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 522-529.
57. Toshpo'latova, S. (2024). O'RTA ASRLARDA OILA PEDAGOGIKASIGA OID FIKRLAR. *Modern Science and Research*, 3(12), 353-361.
58. Toshpo'latova, S., & Xudoyqulov, S. (2024). History And Ethnology Of Olot District. *Modern Science And Research*, 3(5), 148-151.
59. Toshpo'latova, S., & Jo'rayeva, M. (2024). HISTORY AND ARCHITECTURAL MONUMENTS OF JONDOR DISTRICT. *Modern Science and Research*, 3(2), 447-450.
60. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

61. Shuhratovna, T. S. (2024). Linguistic Anthropology. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 4(3), 432-437.
62. Toshpo'latova, S. S., & Naimov, I. N. (2023). MS ANDREYEV-O'RTA OSIYO XALQLARI ETNOGRAFIYASINING YIRIK OLIMI. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 1214-1222.
63. Toshpo'latova, S., & Tursuntoshova, S. (2024). Khoja Abdulkholiq Gijduvani. Modern Science and Research, 3(2), 87-93.
64. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics Of Ethnologies Of Bukhara. Modern Science and Research, 3(2), 1004-1011.
65. Toshpo'latova, S. (2024). Ethnolinguistics. Modern Science and Research, 3(2), 500-507.
66. Toshpo'latova, S. (2024). Religious Anthropology. Modern Science and Research, 3(1), 504-510.
67. Shakhnoza Shuhratovna, T. (2023). MS Andreyev'S Way Of Life. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 655-659.
68. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. International Journal Of History And Political Sciences, 3(12), 42-47.
69. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. Modern Science and Research, 2(12), 801-807.
70. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 17-23.
71. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV-" ARK BUKHARI". Modern Science and Research, 2(9), 404-409.
72. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRIAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. Modern Science and Research, 2(10), 291-299.
73. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 84-89.
74. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 3(1), 12-16.
75. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. Scholar, 1(28), 395-401.

76. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 344-351.
77. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. Modern Science and Research, 3(12), 643-651.
78. Muyiddinov, B., Toshpo'latova, S., & Gadayeva, M. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Modern Science and Research, 4(2), 97-105.
79. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Muyiddinov, B. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODEL. Modern Science and Research, 4(2), 106-116.
80. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 87-96.